



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Allamberganova Nodira Gulmurzaevna¹

¹ NukusDPI O'zbek adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi f.f.d. (PhD).
farzona_n@mail.ru. +998906529815

XALQ DOSTONLARIDA BADIY VARIATSIYALAR («Alpomish» dostoni o'zbek-qoraqalpoq variantlari asosida)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq dostonlarida keng qo'llaniladigan badiiy variatsiyalar va ularning baxshi-jirovlar epik repertuaridagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritiladi. «Alpomish» dostoni o'zbek-qoraqalpoq milliy versiya variantlaridagi sodda va murakkab variatsiyalar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: xalq dostonlari, xalq baxshilari, variatsiya, badiiy variatsiya, improvizatsiya, badiiy takror.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ВАРИАЦИИ В НАРОДНЫХ ЭПОСАХ

(На основе узбекско-каракалпакских версий эпоса «Алпамыш»)

Аннотация: В данной статье речь пойдет о художественных вариациях, широко используемых в народных эпосах, их место и значения в эпическом репертуаре бахши. Анализируются простые и сложные вариации узбекско-каракалпакского национального версии эпоса «Алпамыш».

Ключевые слова: народные былины, народные певцы, вариация, художественная вариация, импровизация, художественный повтор.

LITERARY VARIATIONS IN FOLK EPIC POEMS

(Based on Uzbek-Karakalpak versions of the epic «Alpomish»)

Annotation: This article discusses the literary variations widely used in dastans (folk epics), moreover their place and importance in the epic repertoire of bakhshis. Simple and complex variations are analyzed of the Uzbek-Karakalpak national version of the epic "Alpomish".

Keywords: folk epics, folk singers, variation, literary variation, improvisation, literary repetition.

Kirish (Introduction). Variatsiya atamasi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida: «Variatsiya (lot. variatio – o‘zgarish) (genetikada) – ma’lum bir majmuani tashkil qiluvchi birliklar o‘rtasidagi modifikatsion yoki genotipik farqlar; gen(belgi)ning sifat yoki miqdor jihatidan o‘zgarishi», – deya tavsiflanadi. Shuningdek, «variatsiyalar – musiqa shakli. Unda asosiy musiqiy mavzu (mavzular) o‘zining bir yoki bir qancha unsurlari (ritm, sur‘at, faktura, ohang va b.) o‘zgartirilgan holda takrorlanadi»[7.52], – deyiladi o‘sha manbada. Mazkur atama adabiyotshunoslik termini sifatida fikrning yangi shakldagi takrorini anglatadi. Oddiy takrorda ayni so‘z yoki ifodalarning muayyan qismi, eng kamida bittasining grammatik shakllaridan qat’i nazar takrori yuzaga keladi. Badiiy variatsiyaning oddiy takrorlardan farqi shundaki, variatsiya so‘zma-so‘z takror emas, balki fikr takrori sanaladi. Muallif o‘z fikrini tinglovchi (kitobxon)ga uning ongi va shuuriga to‘la yetib borishi maqsadida yana takrorlaydi, biroq bunday takrorlarda ifoda yangilanadi, mazmun esa nisbatan boyib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).Variatsiya termini, asosan, musiqa uchun xos bo‘lsa ham, undan badiiy ifodalar yaratishda foydalanilgani uchun adabiyotshunoslikda ham qo‘llana boshlangan. Badiiy variatsiya, ayniqsa, folklor asarlarida ko‘p uchraydi va u o‘xshatish, mubolag‘a, epitet va takrorlar kabi badiiy obraz yaratish maqsadida qo‘llanadi. Shuningdek, variatsiyalar baxshi-jirovlarning san‘atkorlik mahoratini belgilashda muhim mezon

sanaladi. Chunki folklorshunos T.Mirzaev: «o‘zbek baxshisi o‘z dostoni matnini auditoriyaning talab va didiga qarab o‘zgartirib (qisqartirib yoki boyitib) turgan»ini qayd etadi [3.386].

Nemis olimi K.Rayxl “Turkiy epos. An’ana, shakl, she’riy tuzilish” kitobida o‘zbek, qoraqalpoq va qozoq xalq dostonlarining shakily tuzilishi haqida, jumladan, badiiy variatsiyalar haqida keng to‘xtaladi. Mo‘g‘ul xalq eposidagi badiiy variatsiyaning o‘rni va ahamiyatini A.V.Kudiyarov, oltoy eposidagi namunalarini A.A.Konunovlar ko‘rsatishgan bo‘lsa, professor B.To‘xliev «Alpomish», shuningdek, «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlarida, xakaslarning «Altin arig‘», qirg‘izlarning «Manas» dostonlarida ham bu usulning ancha faol ekanini ta’kidlaydi[4.68].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavzu yuzasidan tadqiqot olib borishda o‘zbek va qoraqalpoq hamda jahon folklorshunosligida olib borilgan tadqiqotlarga suyanildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy vavriatsiya hodisaning «Alpomish» dostonining milliy versiyalari – o‘zbek va qoraqalpoq variantlarida keng istifoda etilganini kuzatish mumkin. Masalan, Xojambergen Niyazov:

«Xosh bolıńız, oynap ósken qurdaslar,
Bul dúnyada endi kórmek bolmadı.
Xosh bolıńlar, oynap ósken qurdaslar,
Bul dúnyada men de sennen ayrıldım»[2.8].

Yana: «On tórtińde tuwǵan seniń ayıńdı,
Men bilemen, balam, seniń jayıńdı.
On tórtińnen tuwǵan gáwhar aylarıń,
Kelisipti, balam, sayma-saylarıń»[2.17-18].

Yuqorida keltirilganlar qahramon aytmoqchi bo‘lgan asosiy fikrdir. Uning takror ishlatilishi o‘z-o‘zidan tinglovchi (kitobxon) e’tiborini tortadi. Ana shunda

tugʻilib oʻsgan yurtidan, yaqinlaridan va tengi-toʻshidan ayrilish arafasida turgan qahramonning ichki iztiroblari unga ham yuqadi.

Boysundan chiqib ketishda Barchinoy tilidan xayrlashuv monologi sifatida aytilgan dastlabki misollar «Bul dúnyada endi kórmek bolmadı» va «Bul dúnyada men de sennen ayrıldım» variatsiyaning yorqin namunalari boʻlib, eʼtibor berilsa, «kórmek bolmadı» va «ayrıldım» soʻz va birikmalar bir-biriga maʼnodoshdir. B.Toʻxliiev «Yusuf xos Hojib va turkiy xalqlar folklori» asarida «Badiiy variatsiyaning dastlabki pogʻonasi aslida sinonim soʻzlardan foydalanish bilan boshlangan»ini qayd etadi[4.69].

«On tórtińde tuwǵan seniń ayıńdı», «On tórtińnen tuwǵan gáwhar aylarıń» variatsiyalarida toʻlin oy badiiy ifodalarida oyning oʻn toʻrt kunda toʻlishi Alpomishning kamolga kelib, baquvvat va mard yigit boʻlib voyaga yetganligiga ishoradir. Bugungi kunda oyning toʻlishi oʻn besh kun deb ishlatiladi va xalq orasida «oʻn besh kunlik oy», «oyning oʻn beshi qorongʻi, oʻn beshi yorugʻ» kabi ifodalar keng uchraydi. Keltirilgan misolda oyning oʻn toʻrt kunda toʻlishi qamariy hisob bilan bir oyning yigirma sakkiz kundan iborat ekanligi nazarda tutilsa, uning teng yarmi, ayni toʻlin payti oʻn toʻrt kunga toʻgʻri kelishini anglash qiyin emas.

Mazkur variantdagi quyidagi matnlarga eʼtibor qaratsak:

«Kelgenler bizden zormedi,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?
Kelgenler bizden gáwmedi,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?
Kelgenler bizden batır ma,
Ne kórdiń, qara at, ne kórdiń?»[2.23].

Badiiy variatsiya bir qarashda sinonimlarga yaqin tursa ham buni leksik sinonim deb baholash notoʻgʻri boʻladi. Chunki variatsiya fikr sinonimiyasi boʻlib, muayyan tugallangan fikrni yangi ifodalarda berishni maqsad qiladi.

«Alpomish» dostonining oʻzbek milliy versiyasi Fozil Yoʻldosh oʻgʻli variantida Barchinni Qorajonga atashtirib roʻmol bogʻlashga kelgan Surxayl kampir nutqida quyidagi variatsiyalarni kuzatish mumkin:



«Boshida hilpirar lovdon ro‘moli,
Oydayin barq urar aning jamoli...
Bolam, sening yoring bir mohi dilbar,
Jamollari aning oyga barobar»[1.99].

Ajratib ko‘rsatilgan «oydayin barq urar aning jamoli», «jamollari aning oyga barobar» variatsiyalari aynan bir – Barchin jamolining oyga mengzalishini ifodalash uchun qo‘llangan. Variatsiya shunday usulki, unda ifodalar, tasvirlar yangi, oxoriy bo‘ladi. Shu bois ham bunday takrorlar tinglovchi yoki kitobxonni aslo toliqtirmaydi. Aksincha, aytilayotgan, chizilayotgan tasvirning tinglovchi va o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanishiga xizmat qiladi:

«Kórinedi tillá erín iynińde,
Nege keldiń, jalg‘ızım, payıw-piyada?
Arqalapsań tillá erdi iynińe,
Oń qolińa jez bawırdaq qamshı alıp»[2.16].

«Xan aldınan atlanıpsań qaynağa,
Mendey kelinińniń aytar arzı bar.
Atlanıpsań xanıńızdıń aldınan,
Qaynağajan barar jeriń jol bolsın»[2.20].

«Sahár turıp sarı atanğa júk artıp,
Qaysı elden qaysı elge barasań,
Sahár turıp sarı atanğa júk artıp,
Sapar ettiń qay patshaniń eline?»[2.89].

Badiiy variatsiyalarning ko‘rinishlari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, u ikki baytdan bir necha sahifagacha hajmda bo‘lishi mumkin. Mana shunday murakkab variatsiyalarning «Alpomish» dostoni har ikki versiyasidagi deyarli barcha variantlarida Alpomish va Qorajonning bir-biridan «yo‘l bo‘lsin» so‘rash jarayonida uchraydigan namunalarida uchrashi xarakterlidir:

Fozil Yo‘ldosh varianti:



«Ko‘qamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman,
Bog‘larim zumratdan changalim po‘lat,
Boysundan quyulgan shunqor bo‘laman,
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tanqa taylab Olatovni yoylagan,
Kambag‘ali qirq ming gala haydagan,
Shul galada bizning bir moya kelgan,
Moyaning yo‘qchisi nori bo‘laman»[1.149].

Ushbu parchada «Sen kimsan?» degan savolga javobni ko‘rish mumkin. Javobda go‘yo bir necha bandlar sanalgandek bo‘ladi. Uning asosiy mag‘iz-mohiyati qahramonning tasodifiy shaxs emas, balki «zoti ulug‘» ekanini, o‘zining alpligini ayon etishga yo‘naltirilgan «isbotlar» deb qabul qilish mumkin.

Ogiz jirov variantida esa hodisa markazida turgan ishtirokchilarning «ro‘yxati» taqdim etiladi:

«Aldin baslap ketken ol qara narim,
Keyninen ketkendi quba ingeni,
Ortasında ketti aqsha botası,
Moynında ketkendi altın buydası...
Ortasında ketken aqsha botası,
Ózge maldıń joqdur sanı-sapası,
Mal joyıtqan júredi jollarda jılap,
Izinen quwıp kiyatırman soraǵlap»[2.25].

Bu yerda go‘yo qara nar, quba ingen, altın buyda, hamda «ózge mal»lar rang-baranglikni hosil qiladi.

Ayni hodisa Qurbanbay jirov Tajiboev variantida yanada boshqacharoq ifoda etiladi:

«Ashıq bolǵan mashıǵım dep qılar zar,
Kárwandı baslaǵan endi quba nar,
Keyninde bar qızıl maya ingeni,



Joq sózimniń, aysam saǵan, qátesi.
Izinde oynar jez buydalı aq taylaq botası,
Joq sózimniń ayta bersam qátesi.
Biz bolamız sol mallardıń iyesi,
Jurttı bolsa ádalatlı endi xan,
Budan xabar bergil zalım Qarajan»[2.302].

Arzimbet jirov varianti:

«Aldın baslap ketken bizden qara nar,
Al izinen ketken quba ingeni,
Bul sózimniń joqdur, bilseń, xatası,
Ortasında ketken eken,
Narsha taylaq, jez buydalı botası,
Men yıǵlayman bir allaǵa zar-zar,
Hár ne qılsa haq máwleniń erki bar,
Basqa maldı aytıp, zańǵar, neteyin,
Kórseń-bilseń úsh malımnan ber xabar»[2.628].

Keltirilgan variatsiyalar murakkab tabiatli bo‘lib, hajm jihatidan ham sodda variatsiyalardan farqlanadi. Bunday variatsiyalar yangi poetik tasvirlar yaratish bilan birga, ma‘noni kuchaytirishga, tasvirni yangilash bilan tinglovchi-kitobxonda tez va yorqin taassurot uyg‘otishga xizmat qiladi. Biz tahlilga tortgan variantlarning deyarli barchasida Barchinni izlab yo‘lga chiqqan Alpomishning Qorajon bilan, Tovka bilan qilgan suhbatlarida murakkab variatsiyaning go‘zal namunalariga duch keldik. Fozil shoir variantida Alpomish «Shul galada bizning bir moya kelgan, Moyaning yo‘qchisi nori bo‘laman», – deya o‘zining Barchinni izlab kelganiga ishora qilsa, Ógiz jirov: «Aldın baslap ketken ol qara narım, Keyninen ketkendi quba ingeni, Ortasında ketti aqsha botası». Qurbanbay jirov Tajiboev: «Kárwandı baslaǵan endi quba nar», «Keyninde bar qızıl maya ingeni», «Izinde oynar jez buydalı aq taylaq botası», – deya O‘giz jirov qo‘llagan o‘xshatishlar oqali o‘sha ifodani aynan takrorlamagani holda o‘sha fikrni yangi ifodalar bilan bezaydi. Arzimbet jirov ham Ógiz jirov va Qurbanbay jirov fikrini va tashbehlarini qo‘llagani

holda yangi tasvirlar yaratadi. Natijada o‘sha fikr, ma’no va mazmun turli bezaklar bilan ziynatlanadi: «Aldin baslap ketken bizden qara nar», «Al izinen ketken quba ingeni», Ortasinda ketken yeken... jez buydalı botası».

Dastlab, tahlilga tortilgan variatsiya namunalarida ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning leksik ma’nosiga e’tibor qaratish zarur. Mazkur matnlardagi «quba» va «ingen» so‘zlari izohtalabdir. «Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi»da quba – aqshıl sarı, quo‘qıl, boz, bozg‘ıtlao‘, surlao‘ tus[6.180]. Ingen yesa maya, urg‘ashı túye. Ko‘chma ma’noda «jas sulıo‘ qız», «janan», «súygilik»[2.272]. Demak, keltirilgan matnlardagi «nor», «moya», «ingen», «bota» so‘zlari va shularni jamlash ma’nosida ishlatilgan «úsh mal» birikmasi ko‘chma ma’nolarda qo‘llangan bo‘lib, Boysarini nor-tuyaga, xotinini ingen, ya’ni ona tuyaga, Barchinni esa o‘zbek variantida moyaga va qoraqalpoq variantida bota – tuyaning bolasiga qiyoslash orqali poetik tasvir yaratiladi. Bu yerda ifodalanayotgan fikr esa bitta – Boysari va uning oilasi haqida surishtirmoq, xabar topmoq. Bir qancha baytlar orqali ifodalangan, hajman katta bu variatsiyalar bir fikrning turli ifodalar bilan berilishi, ziynatlanishidir.

Variatsiya bu – «ayni predmet, voqea-hodisa yoki vaziyatni har gal yangicha ifodalar bilan tasvirlash, ammo shunda ham uning oldingi silsilasiga aloqador xususiyatlarni saqlab qolish oson ish emas. Bular ijodkordan har tomonlama mahoratli bo‘lishni talab etadi. Mana shunday keskin va qat’iy talablarga dosh bera olgan adibgina badiiy variatsiya imkonlaridan keng va to‘la foydalana olishi, shu bilan birga o‘z individual mahorat qirralarini atroflicha ko‘rsatishning uddasidan chiqishi mumkin»[4.90]. Yozma adabiyotga nisbatan aytilgan ushbu xulosalarni to‘lig‘icha baxshi-jirovlar ijodiga ham tatbiq etish joizdir.

Demak, variatsiya baxshi-jirovlarning epik repertuari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning nafaqat syujet yoki matnni yoddan bilishi, balki aytilmoqchi bo‘lgan fikrlarni yangi va oldingisidan-da go‘zal bir shaklda ifodalash san’atidir. Bu jarayon ancha murakkab bo‘lib, biror tasvir yaratilayotganda so‘z qo‘llashda bir xillikka yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi. Buning uchun baxshi-jirov oldin ishlatgan so‘zlarini aynan takrorlamasligi, yangi leksemalardan, ma’nodosh so‘z va qo‘shimchalardan



foydalana olish mahoratiga ega bo'lishi bilan birga gap qurilishining turli shakllarini bilishi va ulardan o'rinli va maqsadga muvofiq holda foydalanishi talab etiladi. Yuqoridagi misollar baxshi-jirovlarning ushbu talablarni a'lo darajada bajarganlarini tasdiqlab turibdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Folklor asarlari matniga xos bo'lgan variatsiya improvizatsiya bilan bog'liq hodisa bo'lib, uni epik klishelar, barqaror epik formulalardan, takrorlardan farqlash talab etiladi. Variatsiya bu – bir fikrni turli ifodalar orqali anglatish usuli bo'lib, tahlil jarayonida variatsiyalarning qo'llanilishiga ko'ra ikki turi mavjudligini kuzatdik. Bular:

1) Sodda variatsiyalar: bular, asosan, sinonim so'zlar asosiga qurilgan bo'ladi, biroq ularni so'z sinonimiyasidan farqlash kerak. Bunday variatsiyada sinonim so'z vositasida yangi fikr – tasvir yoki manzara yaratiladi. Masalan, Kelgenler bizden zormedi, Kelgenler bizden gawmedi, Kelgenler bizden batir ma; Bul dunyada endi kormek bolmadı. Bul dunyada men de sennen ayrıldım.

2) Murakkab variatsiyalar: hajm jihatdan to'rt va undan ortiq misralardan iborat bo'lib, undagi fikrlar takrori muayyan matn orqali anglashiladi. Shuningdek, variatsiyaning bu ko'rinishida gap bo'laklarining inversiyaga uchrash hodisasi ham ko'p kuzatiladi. Masalan, Qaysı elden qaysı elge barasañ, Sapar ettiñ qay patshaniñ eline?; Qıl quyriq yabılı bala, jol bolsın, Sen minipseñ bir qıl quyriq yabını; Kórinedi tille eriñ iyniñde, Arqalapsañ tille erdi iyniñe; Aldın baslap ketken bizden qara nar, Al izinen ketken quba ingeni, Ortasında ketken eken, jez buydalı botası, Kórseñ-bilseñ úsh malımnan ber xabar.

ADABIYOTLAR:

1. «Alpomish». – Toshkent: Fan, 1999.
2. Qaraqalpaq folklorı. 100 tomlıq. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2007.
3. Mirzaev T. Epos i skazitel. – Tashkent: Fan, 2008.
4. To'xliiev B. Yusuf xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. – Toshkent: Bayoz, 2013.



5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

6. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Tórt tomlıq. – Nókis: Qaraqalpaqstan. 1988. – T. III.